

JADIDLARGA BAĞISHLANGAN ILK MUZEY

Bazarbaeva Aysánem

Berdoq nomidagi QDU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2 A kurs student

Annataciya :Ushbu maqolada jadidlarning qilgan fidokorana xizmati va ularning bugingi kundagi ahamiyati haqida sóz etiladi. Jadidshilik háarakati namoyandalarini bağıshlangan muzeyi haqida sóz etiladi.

Kalit sózlar :jadidshilik, Buxora,Usmonxója Polatxójaev,"Hovli Payon",Behbudiy, qarorlar.

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jaded so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "Jadidlar g'oyasi—Yangi Ózbekiston strategiyasi bilan hár tomonlama uygın va hamohang"bu haqida 2023 - yili 22 - dekabr kúni Respubkika Mánaviyat va márifat kengashi yig'ilishida aytib ótdi.Prezidentimiz qayd etilishicha, yaqinda Toshkentda ótkazilgan "Jadidlar:milliy ózlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi konferenciya jahon ilim - fan a madaniy jamoatchiligi órtasida katta qiziqish uygotdi. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichqa kótarish maqsadida prezident qarori qabul qilinadi.

Jadidchilik harakatining asoschilari o'z davri uchun yangicha tafakkur yarata olishdi. Bunda ochilgan yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar o'tish bilan bir qatorda yosh avlod ongiga milliy g'oya tuyg'usini singdirishdi. Jadidchilik dastlab XIXasrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganliginiva ilm borasida yosh avlodni o'ylagan holda jamiyatni tubdan isloh qilish zaruriyatini tushundilar.Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Keyinchalik Turkiston hududiga keng yoyilishi orqali



ko'plab jadidchilarimiz yetishib chiqdi. Jumladan, jadidchilik otasi deya ta'riflangan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'ipon, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev va boshqalar. Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919)dir. U tarixda "Turkiston jadidlarining otasi" deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy istiqloq uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jaev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga tengkela oladigani bo'lmasa kerak» [3:36]. Marhum sharqshunos olim Laziz Azizzoda «Behbudiyning sobiq Turkiston o'lkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidagi o'rni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N.G. Chernishevskiy, Dobrolyubovlar, tatar va ozarbayjon ma'rifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatxali Oxundov, Naxafbek Vazirovlar bilan qiyoslagan. O'zbekistonda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiyga ham haykal o'rnatish kerak.

Yaqinda Buxora shahridagi "Hovli Payon" uyida O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jamgarmasi ishtirokidagi jadidshilik tarixiga bag'ishlangan ilk muzey tashkil etilmoqda. Bu uy O'rta Osiyo jadidshiligi yetakchilaridan biri Usmonxo'ja Polatxojaevga tegishli bolgan.

O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jamgarmasi tomonidan Buxoro shahridagi "Hovli poyon" uyida jadidshilik tarixiga bag'ishlangan ilk muzey tashkil etilmoqda.


1860 - 70-yillarida qurilgan va "Goziyon" mahallasida Gavkushon madrasasi yonidagi uy mashhur ziyoli, marifatparvar, O'rta Osiyo jadidshiligi yetakchilaridan biri Usmonxo'ja Polatxojaevga tegishli bolgan. "Aynan shu uyda ilk bor yangi usuldagi maktablardan biri ochilib o'qtuvchilarga zamonaviy talim tizimiga mos ravishda ona tili, matematika, tarix, geografiya ham boshqa fanlar bepul o'qitilgan.

Uning yaxshi saqlanib qolgan eski qismida zarur restavratsiya ishlarini olib borish, shuningdek, yangi binolarni rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Muzeyda jadidshilik namoyandalarning qolyozmalari va shaxsiy buyumlaridan iborat yangi ekspozitsiya hamda jadidshilik tarixini oshib beruvchi maxsus yaratilgan multimedia orin oladi.

Mamlakatimizda bu muzeyning tashkil etilishida katta ahamiyatga ega. Sababi bu muzey milliy ozligimizda anglashta katta ahamiyatni kashf etadi. Muzeylar — bu jonli tariximizdir. Muzey — tarix tilsimoti, milliy qadriyatlar eshigi. Muzeylar ajdodlardan meros bolgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilimiy, ma'daniy - ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, tolib boraveradigan bu xazina





faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalarinan sózlavchi bebaho kitobdir. Muzey boy ma'naviy ozuqa beradi, kishi ruhini tozartadi, kishi tassavurini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1 Ayniy S, "Buxora tarixi inqilobi uchun materiallar" —Moskva. 1926.
- 2 Rajabova R va boshqalar Ózbekiston tarixi (1917-1923-yillar) Toshkent — 1994.
- 3 Xo'jayev F, "Buxora inqilobining tarixiga materiallar" Toshkent —1997.

